

XALQARO IQTISODIY INTEGRATSIYA VA UNING O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDAGI O'RNI

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Tog'ayev Jasurbek Mashraf o'g'li

togayevjasurbek360@gmail.com

Anontatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiy integratsiyon jarayonlar va uning yurtimiz rivojlanishiga tasirini o'rganib chiqish bilan birgalikda, taraqqiy etayotgan dunyodagi iqtisodiy integratsiyani davlatlar taraqqiyotida asosiy omil sifatida qarab, uning turlari va davlatimizning qanday turdagi iqtisodiy tashkilotlarga a'zoligi va bu orqali iqtisodiy tarmoqlarimiz rivojlanishi, iqtisodiy integratsiya jamiyatning farovonligini oshirishi va xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarni kengaytirish kerak ekanligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Iqtisodiy integratsiya, erkin savdo zonasi, bojxona ittifoqi, umumiy bozor, ishlab chiqarish omillar, siyosiy ittifoq, xalqaro tashkilotlar, xalqaro hamkorlik

Kirish

Iqtisodiy integratsion jarayonlar hozirgi kunda jahondagi har bir sohani qamrab olmoqda desak xato bo'lmaydi, negaki davlatlar o'rtasidagi nisbiy narx ustunligi bor ekan, albatta, bir davlat boshqa bir davlat bilan savdoga kirishadi. Integratsiyalashuvning ham asosiy manosini, bir so'z bilan aytadigan bo'lsak, bu xalqaro hamkorlikdir. Xalqaro integratsion¹ jarayonlarni rivojlanishi o'tgan asrning 20-yillarining² boshlaridan sezila boshladi. Lekin davlatlar o'rtasidagi savdo jamoviy tuzilmalar, yani davlatlar paydo bo'lgan davrdan boshlandi. U davrdagi savdo aloqalari hozirgidan birmuncha farq qilgan bo'lishiga qaramasdan umumiy tushuncha bir xilligicha qolmoqda. Buning asosiy sababi, savdodan ikkilama tomon ham foyda oladi. Hozirgi zamonoviy xalqaro savdoning ham asosiy konsepsiyasi shuki, bir-birlari bilan savdo qilish albatta manfaatli bo'ladi. Aksi bo'lganda davlatlar savdo-sotiq qilmagan

¹<https://www.coursehero.com/file/123657180/Xalqaro-iqtisodiy-integratsiyaning-mazmun-va-mohiyatidocx/>

²Xalqaro iqtisodiy integratsiya: darslik/ G.G'. Nazarova, X. Xalilov, A.E. Azimov, I.M. Xasanova - Toshkent: Tafakkur, 2010. - 264 b

bo'lardi va o'z ishlab chiqargan mahsulotini o'zi istemol qilardi, lekin bunday bo'lishi haqiqatga to'g'ri kelmeydi. Davlatlar borki, ular nisbiy narxlar o'rtasidagi farq orqali foyda olishadi. Bir so'z bilan aytganda hozirgi vaqtda iqtisodiy integratsiyada ishtirok etmayotgan birorta davlat yo'q. Eng yopiq davlat deb qaraladigan Shimoliy Koreya ham, bugunga kunda Rossiya, Xitoy kabi ittifoqchilarga ega va ular integratsiyaning bir qismidir. Integratsiyalashuvning hozirgi kunda rivojlanishi va ahamiyati ortib bormoqda. Integratsion yarayonlar rivojlana boshlagandan bugungi kungacha, turli ko'rinishda paydo bo'ldi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonining nazariy asoslari va uning O'zbekiston iqtisodiy taraqqiyotiga ta'siri o'rganilgan. Maqolani shakllantirishda induksiya tahlil metodidan foydalanilgan bo'lib, O'zbekistonning turli tashkilotlardagi ishtiroki asosida umumiy natijalar chiqarilgan. Shuningdek, induktiv va deduktiv yondashuvlar orqali integratsiya bosqichlari, ularga xos xususiyatlar hamda O'zbekiston ishtirokidagi ijobiy va salbiy jihatlar umumlashtirib chiqilgan. Tahlil va sintez metodlariga tayangan holda integratsiyaning O'zbekiston iqtisodiy siyosatiga ta'siri yuzasidan xulosa va takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqotda JST, BMT, Osiyo taraqqiyot banki, BBC Uzbek, Stat.uz, Iqtisodiyot va Moliya vazirligi kabi rasmiy manbalar, xalqaro ekspertlarning tahlillari va amaliy statistik ma'lumotlar asosiy axborot manbasi sifatida qo'llanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi

Hozirgi kunda iqtisodiy integratsiyaning asosiy bosqichlari 5 bosqichdan³ iborat hisoblanadi. Bazi bir adabiyotlarda olimlar tomonida bu 4 bosqichdan iborat deb qaralgan. Lekin uning asosiy bosqichi 5 ta bosqichdan iboratdir.

1-Jadval

Integratsiya bosqichlari

³ Ahmadjon Ulmasov, Dilorom Tojiboyeva. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

	Интеграция босqичлари	Asosiy jarayonlar
1	Erkin savdo zonalari	A'zo davlatlar o'rtasida bojlar bekor qilinadi
2	Bojxona ittifoqi	Erkin savdodan tashqari, umumiy tashqi boj stavkalari joriy etiladi.
3	Umumiy bozor	Bojxona ittifoqidan tashqari, ishchi kuchi, xizmatlar va kapital erkin harakati ta'minlanadi.
4	Iqtisodiy ittifoq	Umumiy soliq, pul-kredit siyosati olib boriladi.
5	Siyosiy ittifoq	Yagona pul birligi, yagona markaziy bank va umumiy siyosiy institutlar yaratiladi

Birinchi bosqich erkin savdo zonalarini tashkil etish, yani jahon davlatlari erkin savdo-sotiq olib bora olishi uchun bojxona to'lovlaridan voj kechishdan iborat. Buning natijasida esa ishlab chiqarish mahsulotlari omillari ayirboshlanadi. Ikkinchi bosqichda iqtisodiy zonalarini shakllantirgan davlatlarga qo'shimcha bir qancha davlatlar birlashadi. Bu bosqichning birinchi bosqichdan eng ahamiyatli farqi shundaki, integratsion munosabatlar mahsulot ayirboshlash bilan cheklanib qolmaydi. Unda jamiyatning ichki sohalari ham integratsiyalashadi. Bular bank, sanoat, texnologiya yoki boshqa sohalarda namayon bo'ladi. Bundan tashqari davlatlar o'rtasida bojxona ittifoqi shakllanadi. Uchinchi bosqichda esa har bir davlatni qamrab olgan va ularning har biri erkin harakat qila oladigan umumiy bozor shakllanadi. Bu bozorda har qanday milliy iqtisodiyga ega davlatlarning iqtisodiyoti bir-biri uchun ochiq bo'ladi. Umumiy bozorning vujudga kelishi natijasida, har qanday tovar cheklovlarisiz ayirboshlanadi yoki ko'chib yuradi. To'rtinchi bosqichda o'z navbatida umumiy bazorni yanada rivojlantirish uchun iqtisodiy va valyutani integratsiya jarayoniga kiruvchi davlatlarni birlashtiradi. Bu o'z navbatida milliy

valyutani o‘zaro birlashtish va hammaga umumiy bo‘lgan valyuta siyosatini qo‘llashni ko‘zda tutadi. Bunga misol tariqasida 2000-yilda umumiy valyuta ,yevroga o‘tgan Yevropa⁴ Ittifoqidir. So‘ngi bosqichda siyosiy ittifoq bo‘lib, bu bosqichda davlatlar umumiy siyosat olib boradi. Hozirgi kunda bunday bosqichdagi biror ittifoq yo‘q. Integratsiyaning eng yuqori bosqichi deb qaraladigan Yevropa Ittifoqi ham hozir iqtisodiy ittifoq bosqichidadir.

Shuningdek integratsion jarayonlar davlatlarning rivojlanishida, asosan davlatlarning xalqaro iqtisodiy integratsion tarmog‘ida sezilar rol o‘ynadi. Albatta, bu jarayon ko‘proq bir mintaqadagi yoki o‘zaro qo‘shni bo‘lgan davlatlarda iqtisodiy hamkorlik ko‘proq ko‘zga tashlanadi. Shu tomoniga e‘tibor berish keraki, jahon iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar tizimida integratsion jarayonlar asosiy ikki turi mavjud deb qaraladi. Bu mikro⁵ va makro integratsion jarayonlardir. Mikro darajadagi integratsiyalashuv bir-biriga hududiy jihatdan yaqin joylashgan mamlakatlarda transmilliy korporatsiyalarning tashkil etilishi orqali amalga oshiriladi. Tashkil etilgan korxona va firmalarning o‘zaro aloqalari tez rivojlanishi tovar va resurslar almashuvini, kapital va ishchi kuchining davlatlar orasidagi erkin harakatini taminlashga yordam beradi. Bundan tashqari ilmiy texnikalar, inovatsiyalar almashuvini yoki mudofa, bojxona va yagona valyuta siyosatini o‘tkazish zaruriyatini tug‘diradi. Makro darajadagi integratsiyalashuv esa mintaqalar aro amalga oshiriladi. Eng e‘tiborli tomoni shundaki, u xalqaro maydonda deyarli barcha davlatlarni qamrab olmoqda. Xalqaro integratsion jarayon, mamlakatlar boshqa bir mamlakatlar bilan o‘zaro aloqalarni rivojlantirish va umumiy maqsadlar va manfaatlar uchun mustahkam munosabatlarni jamiyatning turli sohalariga qo‘llash orqali iqtisodiyotni rivojlantirish, madaniy almashishinuv, imkoniyatiga ega bo‘lishdir.

Xalqaro intergaratsion jarayonini O‘zbekiston Respublikasi misolida ko‘rib chiqadigan bo‘lsak. Respublikamizda mustaqillik yillaridan keyin birinchi prezidentimiz Islom Karimov tomonidan ko‘plab islohotlar o‘tkazildi, shu jumladan

⁴ Ahmadjon Ulmasov, Dilorom Tojiboyeva. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

⁵ Xalqaro iqtisodiy integratsiya: darslik/ G.G’. Nazarova, X. Xalilov, A.E Azimov, I.M Xasanova- Toshkent: Tafakkur, 2010. -24b/264 b

ta'lim sohasida ham bir qancha o'zgarishlar o'tkazildi va hozirgi kunlarda ham bu islohotlar davom etmoqda. Yurtimizda ta'lim sifatini modernizatsiya qilish va yaxshilash uchun bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Bu tizimdagi eng muhim o'zgarishlar oliy va o'rta maxsus ta'lim bosqichlariga yo'naltirilmoqda. Bu borada xorij tajribasi joriy etish, elektron ta'lim resurslarini rivojlantirish, o'quv dasturlarini o'z milliyligimizni saqlab qolgan holda xorijiy dasturlar bilan uyg'unlashtirishga e'tibor qaratilmoqda. Hozirda O'zbekiston quyidagi iqtisodiy integratsion bloklarga a'zo hisoblanadi.

2-jadval

O'zbekiston hozirgi kunda a'zo bo'lgan iqtisodiy ittifoqlar⁶

	Nomi	Qabul qilingan yili	Maqsadi
1	Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH)	1991-yil 21- dekabr	Sobiq SSSR davlatlari birlashgan tashkilot, erkin savdo hududi mavjud
2	Yagona Iqtisodiy Makon (MDH doirasida)	2011-yil 18- oktabr	MDH doirasida erkin savdo zonasi to'g'risida bitimga qo'shilgan.
3	Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti (ECO)	1992-yil	Markaziy Osiyo va Eron, Turkiya kabi davlatlar bilan iqtisodiy hamkorlik.
4	Islomiy Hamkorlik Tashkiloti (OIC)	1996-yil	Islom mamlakatlari bilan iqtisodiy va siyosiy hamkorlik tashkiloti.

⁶ <https://www.wto.org/>

5	Turkiy Davlatlar Tashkiloti (TDT)	2009-yil (kuzatuvchi), 2021-yil (to'liq a'zo)	Turkiy tilli davlatlar iqtisodiy va madaniy integratsiyasi
6	Jahon Savdo Tashkiloti (JST)	A'zolik davom etmoqda (nomzod: 1994-yildan)	Hozircha to'liq a'zo emas, ammo muzokaralar davom etmoqda.

Bu yerdan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng bir qator iqtisodiy integratsion tashkilotlarga a'zo bo'lib, mintaqaviy va global savdo aloqalarini kengaytirishga intildi. 1991-yilda O'zbekiston Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga (MDH) qo'shilib, sobiq SSSR davlatlari bilan hamkorlikni davom ettirdi. Bu tashkilot doirasida erkin savdo hududi mavjud bo'lib, bojxona to'siqlarisiz savdo imkonini beradi. 2011-yilda esa MDH doirasidagi Yagona Iqtisodiy Makon bitimiga qo'shildi va bu orqali iqtisodiy hamkorlik yanada kuchaydi. 1992-yilda O'zbekiston Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti (ECO)ga a'zo bo'lib, Markaziy Osiyo, Turkiya va Eron bilan iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'ydi. 1996-yilda esa Islomiy Hamkorlik Tashkilotiga (OIC) a'zo bo'lib, islom mamlakatlari bilan iqtisodiy va siyosiy aloqalarni rivojlantira boshladi. 2009-yilda Turkiy Davlatlar Tashkilotiga kuzatuvchi sifatida kirgan O'zbekiston, 2021-yildan boshlab to'liq a'zolik maqomiga ega bo'ldi va turkiy tilli davlatlar bilan iqtisodiy-madaniy integratsiyani mustahkamladi. Shuningdek, O'zbekiston 1994-yildan buyon Jahon Savdo Tashkiloti (JST)ga a'zolik uchun nomzod bo'lib, hali to'liq a'zo bo'lmagan bo'lsa-da, muzokaralar davom etmoqda.

3-Jadval

O'zbekiston iqtisodiy⁷ ittifoqlardagi savdo ulushi

⁷ <https://stat.uz/>

	Tashkilot nomi	O'zbekiston savdo ulushi(mlrd \$)	Tashkilot umumiy bozor aylanmasi (mlrd \$)
1	MDH (shu jumladan ESTZ)	15.6	520
2	Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti (ECO)	4.2	630
3	Islomiy Hamkorlik Tashkiloti (OIC)	2.7	1000
4	Turkiy Davlatlar Tashkiloti (TDT)	5.1	3500
5	Jahon Savdo Tashkiloti (JST)	0.0 (hali a'zo emas)	32 000

2024-yil holatiga ko'ra, O'zbekiston bir nechta mintaqaviy va xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bilan faol savdo aloqalarini yuritmoqda. Eng katta savdo hajmi Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) doirasida amalga oshirilgan bo'lib, bu tashkilot orqali O'zbekiston 15,6 milliard AQSH dollari miqdorida savdo qilgan. MDHning umumiy savdo aylanmasi esa 520 milliard dollarni tashkil etadi. Bu O'zbekiston uchun eng muhim va faol savdo maydonidir. Turkiy Davlatlar Tashkiloti (TDT) bilan ham savdo aloqalari sezilarli bo'lib, 2024-yilda 4,2 milliard dollarni tashkil etgan. Bu tashkilotning umumiy aylanmasi 630 milliard dollar bo'lib, O'zbekistonning ulushi nisbatan kichik, ammo istiqbolli hisoblanadi. Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti (ECO) doirasida savdo hajmi 2,7 milliard dollarga teng bo'lgan. ECONing umumiy aylanmasi 1 trillion dollarni tashkil qilgani holda, O'zbekiston bu tashkilotdagi iqtisodiy salohiyatdan hali to'liq foydalanganicha yo'q. Islomiy Hamkorlik Tashkiloti (OIC) orqali esa O'zbekiston 5,1 milliard dollarlik savdo qilgan. Tashkilotning umumiy aylanmasi 3,5 trillion dollarni tashkil qiladi. Bu raqamlar O'zbekiston uchun islom mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalarni yanada chuqurlashtirish imkoniyati borligini ko'rsatadi.

Хулоса

Xalqaro iqtisodiy integratsiya bugungi global iqtisodiyotda davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish va taraqqiyotning muhim omiliga aylangan. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, mintaqaviy va global savdo tizimlariga faol qo'shila boshladi. Jumladan, MDH, ECO, OIC, TDT kabi tashkilotlarga a'zo bo'lish orqali O'zbekiston erkin savdo maydonlariga kirish, bojxona to'siqlarini kamaytirish, investitsiyalarni jalb qilish va xalqaro iqtisodiy aloqalarni kengaytirishga erishdi. Xususan, 2024-yil holatiga ko'ra, eng katta savdo hajmi MDH orqali amalga oshirilgan bo'lib, bu tashkilot O'zbekiston iqtisodiyoti uchun eng faol hamkorlik maydonidir. Integratsiyaning barcha bosqichlari – erkin savdo zonasi, bojxona ittifoqi, umumiy bozor, iqtisodiy va siyosiy ittifoqlar orqali iqtisodiy tarmoqlar o'zaro bog'lanib, iqtisodiy o'sishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, JSTga a'zolik yo'lida olib borilayotgan muzokaralar global savdo tizimiga to'liq qo'shilish uchun strategik ahamiyat kasb etadi. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekiston xalqaro iqtisodiy integratsiyada qatnashish orqali nafaqat eksport-import hajmini oshirgan, balki ichki iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, xorijiy tajribalarni joriy etish va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga ham erishmoqda. Kelgusida esa bu yo'nalishda strategik islohotlarni davom ettirish, yangi integratsion maydonlarga kirish hamda mavjud hamkorliklarni chuqurlashtirish O'zbekiston iqtisodiy taraqqiyoti uchun muhim omillardan biri bo'lib qoladi.

Фойдаланилган адабиётлар ro'yxati

1. Xalqaro iqtisodiy integratsiya: darslik/ G.G'. Nazarova, X. Xalilov, A.E. Azimov, I.M. Xasanova - Toshkent: Tafakkur, 2010. - 264 b
2. Jahon iqtisodiyoti: I.R. X. SHodiyev, E.R. Maxmudov: darslik/ Toshkent
3. Ahmadjon Ulmasov, Dilorom Tojiboyeva. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
4. <https://www.coursehero.com/file/123657180/Xalqaro-iqtisodiy-integratsiyaning-mazmun-va-mohiyatidocx/>
5. <https://www.worldbank.org/en/research/brief/trade-and-international-integration>

6. <https://stat.uz/uz/>

7. <https://www.wto.org/>